



Nordic International University

Abidjanova Vasila To'lovna

Tyutor, tarbiyachi - pedagog

v.abidjanova@nordicuniversity.org

+99877-308-06-08



A man in a dark suit and blue tie is holding a tablet. The tablet screen is filled with blue-toned data visualizations, including hexagonal patterns, a world map, and a presentation slide showing a speaker at a podium. The background is a bright blue gradient with light rays.

Rahbar va xodim munosabatlari

• MUAMMOLI VAZIYAT

Siz boshqa maktabdan yana boshqa bir maktabga rahbar bo'lib keldingiz. Hali hamma ham sizni tanimaydi. Yo'lakda sizga e'tibor qilmasdan sport mashg'uloti vaqtida nimalar to'g'risidadir suhbatlashayotgan uchta xodimingizni ko'rdingiz, 20 daqiqadan so'ng yana shu holatni guvohi bo'ldingiz. Siz o'zingizni qanday tutasiz?





Mening fikrimcha, rahbarlar bunday vaziyatlarga kamdan kam hollarda duch keladilar.

Chunki ta'lim muassasasi yoki korxonaga yangi rahbar tayinlansa, birinchi navbatda u xodimlarga tanishtiriladi.





Ammo ish jarayonida bunday vaziyatlar ham kuzatilib turadi, shuning uchun vaziyatga to'g'ri baho bergan holda muammoni hal qilish lozim.



Agarda shunday holga duch kelsam o'sha xodimlar bilan yaqindan tanishib olgan holda, ulardan bu muassasadagi sport bo'yicha qilinayotgan ishlarni, yangiliklarni, qanday mashg'ulotlar o'tkazilishini va albatta bu to'g'ridagi o'zlarining taklif va mulohazalarini so'ragan bo'lar edim.



Bundan tashqari bu joydagi sharoitlar va kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari haqida suhbatlashgan bo'lardim. Chunki rahbar birinchi uchrashuvdayoq xodimlarga tabeh bersa, ularda salbiy taassurot qoldiradi. Chunki psixologiyada ham insonlarda birinchi va oxirgi taassurot ya'ni xotira ko'proq saqlanib qoladi.







- Menimcha, ular shunda o'zlarining xatosini tushunib yetadilar va keyinchalik o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondashadilar.



TAKLIF VA MULOHAZALAR


Rahbar haddan tashqari xodimlari bilan yaqinlashib ketmasligi, shu bilan birga juda ham qattiqo'1 bo'lmasligi kerak.

Rahbar va xodim munosabati ota va farzand munosabatiga o'xshashi lozim.





- Ya'ni xodimlar rahbardan qo'rqishlari shu bilan birga uni yaxshi ko'rishlari va hurmat qilishlari lozim. Chunki farzand otadan seskanib tursa ham baribir uni hurmat qiladi yaxshi ko'raveradi.



Rahbarda liderlik, psixologik qobiliyatlar yaxshi shakllangan bo'lsa u xodimlar bilan hech qanday muammolarsiz uzoq yillar davomida ishlay oladi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

